

## ISLOM DINING QADRIYATLARI VA MAROSIMLARI

*Shahrisabz davlat pedagogik  
Instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası  
o'qituvchisi*

**G'ulomova Ruxsora**  
*pedagogika fakulteti talabasi*  
**Durmatova Nilufar Shuxratovna**  
**Jabborova Maftuna**

**Annatsiya** : *Ushbu maqolada islom dinida mavjud bo'lgan qadriyatlar va marosimlar haqida so'z yuritilgan. Islom qadriyatlarining hozirgi kundagi o'rni , marosimlarning ahamiyati haqida bayon qilingan .*

**Kalit so'zlar** : *Islom , qadriyatlar , marosimlar , zakot , nikoh , Qurbon Hayiti , Ramazon oyi.*

**Аннотации** : *В этой статье рассказывается о ценностях и ритуалах в исламе . Описана современная роль исламских ценностей и значение ритуалов .*

**Ключевые слова** : *Ислам , ценности , церемонии , закят , свадьба , Ид аль - Адха , месяц Рамадан .*

**Annotation** : *This article talks about the values and rituals that exist in the religion of Islam .*

**Keywords** : *Islam , values , rituals , zakat , marriage , Eid al -Adha , Ramadan .*

Islom dini yirik 3 dindan biridir. Islom so'zi " Allohga o'zini topshirish " , "itokat etish " , " taslim bo'lish " , " bo'ysunish " ma'nolarini anglatadi. Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'on " dir. Qur'on VII asrda Alloh taolo tomonidan Muhammad ( s.a.v. ) vahiy yuborishi natijasida nozil bo'lgan. Islom dini har tomonlama insonlarning manfaatlarini , qadrini o'ylovchi dindir. Islom dining o'ziga xos qadriyatlari , o'ziga xos marosimlari mavjud . Masalan , Ramazon , Qurbon hayiti , aqqa , nikoh marosimi va shu kabilar.

Qurbonlik qilish ham bir islom dinining qadriyat- an'alaridan biri. Qadriyat so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak , "yaqin bo'lmoq " , "yaqinlashmoq " degan ma'nolarni anglatadi . Islom dinida qurbonlik qilish eng ulug' amallardan biridir. Alloh taolo Qur'oni karimda Kavsar surasining 2- oyatida quyidagicha marhamat qilgan : " Parvardigoringiz uchungina namoz o'qing va qurbonlik qiling ". Qurbonlik qilish sunnat amal hamdir. Ko'plab hadislarda ham qurbonlik qilish haqida so'z yuritilgan. Masalan , Hadislarda Mixnaf ibn qays roziyallohu anhudan shunday rivoyat keladi : " Ey odamlar , har bir uy ahliga har yili bir qurbonlik va atiyra lozimdir " . Qurbonlik qilishning ham o'zining shartalari bor. Masalan , qurbonlik qilinadigan jonzot kamida 1 yoshli qo'y yoki echki bo'lishi kerakligi yoki bo'lmasa , qurbonlik qilinadigan hayvon sog'lom bo'lishi ( ozg'in , so'yiladigan joyga yurib bora olmaydigan cho'loq bo'lmasligi , tana a'zolari shikastlangan , uzilgan bo'lmasligi )kerak. Ba'zi manbalarda hayvonda 4 ta xususiyat mavjud bo'lsa u

hayvonni so'yish mumkinmas : 1. U cho'loq bo'lsa .2. Uning ko'zi ko'r bo'lsa . 3. Nosog'lom bo'lsa . 4. Tana a'zolaridan biri qirqilgan ,kesilgan , uzilgan bo'lsa.

Islomiy yana bir go'zal odat va qadriyatlardan biri bu hurmat va mehribonchilikdir. Insonlar boy yoki kambag'al , qari yoki yosh , sog'lom yoki nosog'lom bo'lishidan qat'iy nazar bir- birlariga mehr-oqibatli bo'lishlari , bir-birlarini qadrlashlari kerak.Xalqimiz orasida shunday gap bor : " Mehr ko'zdadir " .Inson qadri islomda ham ulug'langan , shuning uchun keksalar , nogironligi bo'lgan shaxslarni , boquvchisini yo'qotgan bolalar va boshqalarni qadrlash uchun yurtimizda prezidentimiz tomonidan turli xil qonun va qarorlar qabul qilingan.Masalan , 2015- yil muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimiv tomonidan " Keksalarni e'zozlash yili " deb e'lon qilingan va nogironligi bo'lgan boquvchisini yo'qotgan shaxslar uchun nafaqalar joriy qilingan.Bundan tashqari, yurtimizda 2008 - yil " Yoshlar yili " deb nomlangan va yoshlarga juda katta e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari ,Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan keksalarni e'zozlab , ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bo'lgan nuroniylarga mukofot pullarini berildi. Boquvchisini yo'qotgan oilalarga , yosh oilalarga muddatli to'lov evaziga voshlang'ich to'lo i to'langan holda uy-joylar berildi. Bu ham davlatimiz tomonidan xalqqa bo'lgan mehribonlik va hurmat-e'tibordir.

Yana bir islomiy marosimlardan biri bu nikohdir.Nikoh arabcha so'zdan olingan bo'lib , "birlashish " degan ma'noni anglatadi.Oila qurish va nikohlanish Alloh taoloning farzlaridan biri. Nikoh , oila qurish bu naslning davomiyligini hamda haromdan saqlanishni ta'minlaydi.Hadislarda ham "erning yarim dinini ayoli himoya qiladi " , Nikoh - halol , zino-harom" degan fikrlar ham keng uchraydi.Hozirdi kunda nikohlanmoqchi bo'lgan erkak va ayol dastlab qonuniy nikohdan so'ngra diniy tomonlama nikohdan o'tishadi. Jamiyatimizda faqatgina shariat yuzasidan nikohlanib , qonuniy nikohlanmagan er- xotinlar keyinchalik ajrashishgan taqdirda ayolla jabr ko'ryapti ( o'zi va agar farzandlari bo'lsa , farzandlarini ham boqa oladigan mablag'i yo'qligi ) .Shuning uchun davlatimiz qarori bilan dastlab turmush qurish ostonasida turgan insonlar qonuniy nikohdan o'tishadi , keyingina din peshvolari , ulamolari yoki imomlar , mullalar tomonidan nikoh o'qiladi.Bundan tashqari , nikoh yurmaydigan holatlar ham bor : erkak va ayol emikdosh bo'lsa , aka- uka va opa- singil orasida. Nikohni bekor qilinishi ham mumkin . Masalan eri vafot qilsa , ayoli 4 oy-u 10 kundan keyin taloq bo'ladi , ya'ni nikohidan chiqadi.

Zakot berish ham islomiy qadriyatlardan biridir.Imom Buxoriyning kitobida shunday hadis keltirilgan : " Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan bir hadisda " Rasululloh sollallohu alayhi va sallam : Kimga Alloh taolo mol- dunyo bergan bo'lsa-yu , u zakot bermagan bo'lsa , jamg'argan boyligi qiyomat kuni ilon shakliga kirib , egasining tanasiga o'ralib olib chaqadi dedilar " . Agar insonda zakot berishi uchun yetarli mablag'i bo'la turib zakot bermasa , u odam , albatta , jazolanadi. Zakotni bergandan keyin uni qaytarib olinsa yoki minnat qilinsa , u zakot berilgan hisoblanmaydi.Zakot boquvchisini yo'qotganlarga , yetimlarga , nogironligi bo'lgan shaxslarga , umuman olganda moddiy tomondan qiynalgan insonlarga beriladi.

Ramazon oyi ham eng muqaddas oylardan biri . Musulmonlar Alloh rozlligi uchun 30 kun ro'za tutadilar. Ramazon oyida insonlar haromdan saqlanib , faqat halol narsalarni iste'ml

qilishadi. Ramazon oyida Alloh taolo zinodan saqlanib , undan himoyalaniшни aytada. Zinoning ko‘rinishlari ham mavjud : masalan , ko‘z zinosi - ko‘z orqali nomahramga qarash , oyoq zinosi - nohamramlarning yoniga borish va hk. Inson shu 30 kunda poklanadi haromdan tiyiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki , islomiy marosimlar va qadriyatlar bizga begona emas , ya’ni bizni qonimizga singan madaniyat namunalariidir. Sho‘ro tuzumi davrida yurtimizda bu qadriyat va marosimlarni o‘tkazishda katta ta’qiqlar qo‘yildi. Imomlar , mullalar quloq qilindi. Namoz o‘qishga ta’qiqlar qo‘yildi. Ammo mustaqillik ostonasiga qadam qo‘yganimizdan so‘ng islomiy qadriyatlarimiz ulug‘landi va e‘zozlandi. Haj ziyoratlarini amalga oshirish imkoniyatlari osonlashtirildi , Makka-yu Madinaga haj ziyoratini amalga oshirish uchun boruvchilarning xavfsizligi ta’minlandi. Masjidlar ish faoliyatini boshladi va yangi-yangi masjidlar qurildi. Madrasalarda qaytadan ochildi va oliy o‘quv- yurtlari tashkil etildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. G‘ulomova Ruxsora Quvondiqova Dilafuz “ZAMONAVIY TA‘LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G‘OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 73-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYA 78-82b

2. O‘ZBEKISTONDA DIN VA DINIY BAG‘RIKENGLIK G‘ulomova Ruxsora Buriyevna Ro‘ziyeva Nigina San’at qiz. “INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024” Part 35 Issue 1 RUSSIA 2024 COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

3. <https://kun.uz/73444802?q=%2Fuz%2F73444802>

4. Imom Buxoriyning "Sahih al- Buxoriy " asari

v